




## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6712,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-may oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,\* 100,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,1% ni tashkil etdi.

B- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C- Ishlab chiqaradigan sanoat

D- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

E- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi, % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 105,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 105,0 % ga o'sishi xizmat qildi.



Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 38,0 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 22,9 % ga pasayish kuzatildi.




### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'sish sur'ati, %



■ Shag'al

■ Texnik oltingugurt

■ Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al qazib olish - 27,9 % ga o'sgan, shuningdek neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari - 19,9 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa 7,2 % ga pasaygan.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- may	2020- yil yanvar- may	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, <i>tonna.</i>	612,0	568,0	-44,0

Shagʻal, *tonna.* 11927,0 15259,0 3332,0


Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, <i>mln. soʻm.</i>	101411,8	81182,3	-20229,5
---	----------	---------	----------




**Ishlab chiqaradigan sanoat**

2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6384,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,1 % ini tashkil etdi, oʻtgan yilning tegishli (mos yanvar-may oylarida) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.

**Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



2019- yil




2020- yil



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2019- yil yanvar-may oyida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,4 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 59,3 % (55,3 %) va quyi texnologiyalisi - 39,3 % (42,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 51,5 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 127,6 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,1 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,0 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 539,7 ming litr aroq (2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 7,2 % ga o'sgan), 329,3 ming tonna avtomobil benzini (21,2 % ga), 33,3 ming tonna mazut (13,7 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi shuningdek 301,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (3,2 % ga) kamaygan.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Aroq, ming litr.	503,4	539,7	36,3
Avtomobil benzini, ming tonna	271,8	329,3	57,5
Dizel yoqilg'isi, ming t.	311,4	301,3	-10,1
Mazut, ming t.	29,3	33,3	4,0
O'simlik yog'i tozalangan, ming t.	12,5	10,3	-2,2



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	50,0	44,6	5,4
Paxta chigiti, <i>ming t.</i>	67,1	81,9	14,8
Un mahsuloti, <i>ming t</i>	34,3	39,3	5,0
Suyiltirilgan propan va butan, <i>ming t.</i>	4,2	5,2	1,0


Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan) paxta tolasi (12,1 %) ga, paxta chigiti (22,1 %) ga, un (14,8 %) ga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek o'simlik yog'i 17,9 % ga kamaygan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini) tashkil etdi.

**Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2020- yil)**




2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 % ga o'sganligi kuzatildi, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 33,2 % ga oshganligini shuningdek Issiqlik energiyasi 5,1 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	2,0	2,6	0,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	476,0	451,5	-24,5

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat ishlab chiqarish tahlili**



2019- yil

2020- yil







**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 17,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 18,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm	17748,9	20915,1	3166,2
Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – mln. so'm	135,6	153,0	17,4






### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2086,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

2019- yil yanvar-may



Oziq-ovqat  
mahsulotlari

2020- yil yanvar-may



Nooziq-ovqat  
mahsulotlari

2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,6 % dan 38,6 % gacha oshganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 23,6 % (iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 493,0 mlrd. so'm), Buxoro shahar 17,1 % (355,8 mlrd. so'm), G'ijduvon tumani 9,9 % (207,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (97,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (119,5 %), Qorako'l (109,9 %), Romitan (103,2 %), G'ijduvon (101,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar kesimi bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019- yil yanvar-may oyiga nisbatan % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2086,6</b>	<b>100,0</b>	<b>97,2</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	355,9	17,1	84,5
Kogon shahar	102,7	4,9	73,2
Olot tumani	46,0	2,2	92,7
Buxoro tumani	120,5	5,8	90,7
Vobkent tumani	103,1	4,9	100,0
G'ijduvon tumani	207,0	9,9	101,8
Kogon tumani	183,4	8,8	92,0
Qorako'l tumani	148,3	7,1	109,9
Qorovulbozor tumani	493,0	23,6	119,5
Peshko' tumani	47,0	2,3	86,3
Romitan tumani	79,8	3,8	103,2
Jondor tumani	115,0	5,5	94,4
Shofirkon tumani	84,9	4,1	88,2

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib 22,3 % ni, Qorako'l 13,5 % ni shuningdek Buxoro tumanida 9,6 % ni, G'ijduvon tumanida 12,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (133,6 %), G'ijduvon tumanida (118,5 %) Buxoro shahrida (109,7 %), Romitan tumanida (104,3%), qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oyida)**

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019- yil yanvar-may oyiga nisbatan % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>805,9</b>	<b>100,0</b>	<b>103,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	180,0	22,3	109,7
Kogon shahar	51,4	6,4	67,7
Olot tumani	21,6	2,7	94,2
Buxoro tumani	77,2	9,6	93,4
Vobkent tumani	43,0	5,3	101,6
G'ijduvon tumani	101,5	12,6	118,5
Kogon tumani	32,5	4,0	95,5
Qorako'l tumani	109,0	13,5	133,6
Qorovulbozor tumani	8,5	1,0	100,8
Peshko' tumani	25,4	3,2	97,1
Romitan tumani	35,3	4,4	104,3
Jondor tumani	70,9	8,8	101,9
Shofirkon tumani	49,6	6,2	97,1

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 37,8 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 13,7 % ni, Kogon tumani 11,8 % ni, hamda G'ijduvon tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (93,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (119,9 %) va Romitan tumanlarida (102,3 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oyida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019- yil yanvar-may oyiga nisbatan %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1280,7</b>	<b>100,0</b>	<b>93,5</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	175,8	13,7	68,4
Kogon shahar	51,3	4,0	79,6
Olot tumani	24,4	1,9	91,4
Buxoro tumani	43,3	3,4	86,2
Vobkent tumani	60,1	4,7	98,9
G'ijduvon tumani	105,5	8,2	89,6
Kogon tumani	150,9	11,8	91,3
Qorako'l tumani	39,3	3,1	73,6
Qorovulbozor tumani	484,5	37,8	119,9
Peshko' tumani	21,7	1,7	76,2
Romitan tumani	44,5	3,5	102,3
Jondor tumani	44,1	3,4	84,4
Shofirkon tumani	35,3	2,8	78,2



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 336,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 5,0 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish eng koʻp Kogon shaharda 124,5 mlrd soʻmni Kogon tumanida 94,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

	Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>336,6</b>	<b>5,0</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	60,0	8,6
Kogon shahar	124,5	40,9
Olot tumani	0,0	0,0
Buxoro tumani	11,1	7,8
Vobkent tumani	39,0	35,8
Gʻijduvon tumani	0,6	0,1
Kogon tumani	94,2	43,8
Qorakoʻl tumani	2,5	1,2
Qorovulbozor tumani	0,4	0,0
Peshkoʻ tumani	0,0	0,0
Romitan tumani	3,3	0,8
Jondor tumani	1,0	0,5
Shofirkon tumani	0,0	0,0



**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6712,7</b>	<b>100,3</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	694,3	102,8
Kogon shahar	304,7	100,9
Olot tumani	163,6	95,5
Buxoro tumani	142,6	67,5
Vobkent tumani	109,0	114,8
G'ijduvon tumani	477,6	108,9
Kogon tumani	215,0	90,8
Qorako'l tumani	214,0	105,5
Qorovulbozor tumani	3536,5	116,0
Peshko' tumani	122,5	92,9
Romitan tumani	415,4	167,8
Jondor tumani	182,0	73,6
Shofirkon tumani	135,5	95,9




**Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi % da**

**Jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 52,8 %), Buxoro shahar (10,4 %), G'ijduvon tuman (7,1 %), Romitan tuman (6,2 %), Kogon shahar (4,5 %) Qorako'l tumani (3,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Fizik hajm indeksi %da**



Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Romitan tumani (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 167,8 %), Qorovulbozor tumanida (116,0 %) Vobkent tumanida (114,8 %) G'ijduvon tumani (108,9 %) hamda Qorako'l (105,5 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3484,4</b>	<b>1083,1</b>

*shahar va tumanlar:*

Buxoro shahar	2 475,2	1 268,6
Kogon shahar	4 987,1	1 680,2
Olot tumani	1 650,6	463,8
Buxoro tumani	856,7	724,0
Vobkent tumani	780,0	737,8
G'ijduvon tumani	1 572,1	681,5
Kogon tumani	2 749,7	2 346,1
Qorako'l tumani	1 304,6	904,1
Qorovulbozor tumani	193 252,0	26 941,1
Peshko' tumani	998,6	382,7
Romitan tumani	2 939,6	564,5
Jondor tumani	1 044,9	660,4
Shofirkon tumani	765,4	479,5






### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 1720,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib oʻz navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 25,6 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ga oʻsishi taʼminlandi.




Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,6 %), Romitan tuman (21,6 %), Kogon shahar (31,9 %) da sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3694 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1099 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,8 % i) Buxoro shahriga to'g'ri kelmoqda. 2020- yil yanvar-may oylarida viloyatda 355 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 66 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,6 %) Buxoro shahrida, 59 tasi (16,6 %) G'ijduvon tumanida, 30 tasi (8,5 %) Shofirkon tumanida tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi  
bo'limi

Tel.: (71) 230-83-05